

Yaponiyaning Xalqaro qishloq xo'jaligi ilmiy tadqiqot markazining JIRCAS dasturi



Dasturning maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlardagi qishloq xo'jaligida tadqiqot institutlarining tadqiqot faoliyati samaradorligini yaxshilashdan iborat. Mazkur dasturning mavzusi – soya va gurunchning unumdorligini oshirish, o'simlik kasallanishining oldini olish.

Tanlov shartlari:

- *ishtirokchi tanlangan mavzu amalda qo'llaniladigan mamlakatning fuqarosi bo'lishi;*
- *ishtirokchi qishloq xo'jaligi sohasida ishlashi;*
- *magistr darajasiga ega bo'lishi;*
- *ingliz tilini bilishi;*
- *sog'lig'i yaxshi bo'lishi;*
- *ishlayotgan tashkilotdan rasmiy tavsiyanoma;*
- *ishtirokchi faqat tanlangan tadqiqot mavzusi bo'yicha ishlash imkoniyatiga ega bo'lishi.*

Yo'l xarajatlari, yashash joyi hamda tibbiy sug'urta dastur tomonidan qoplanadi.

Talab etiladigan hujjatlar:

- *ariza anketasi*
- *chop etilgan 3 ta maqola (hozirgi kunda eng muhim)*
- *CV*

Arizalar 01.05.2018 yilgacha qabul qilinadi.

Ushbu tanlov bilan bog'liq batafsil ma'lumotlarni quyidagi <https://www.jircas.go.jp/en/relations/fellowship/2018/tsukuba> elektron manzil hamda TIQXMMI Xalqaro aloqalar bo'limi orqali olishlari mumkin.